

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI
MARKETING
BIZNES
SAVDO
INNOVATSIYA
TARQIQUVCHI
NATIJALI
BREMUNDU

№ 8 – SON

2025-YIL, AVGUST

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 352 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-avgustda ruxsat etildi

MUNDARIJA

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ	6
Касимова Фатима Тулкиновна	
THE ROLE OF DIPLOMATIC INITIATIVES IN STRENGTHENING INDIA–	
UZBEKISTAN ECONOMIC TIES	13
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
DISTINCTIVE FEATURES OF DATA PROCESSING IN TOURISM AND THE	
POSSIBILITIES OF THEIR USE	22
Abduvokhidov Abdumalik Makhkamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT TIZIMINING	
IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	32
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI REJALASHTIRISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Ametova Nasiba Danilovna	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI	52
Gozieva Mokhira Rustamovna	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC PECULIARITIES OF PRODUCTION	
OF BUILDING MATERIALS FROM THE POINT OF VIEW OF	
INNOVATION	60
Igamova Shaxinya Zikrilloyevna	
QURILISH TASHKILOTLARINING INNOVASION RIVOJLANISHIDA	
XODIMLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI..	70
Karimova Aziza Azamiddin qizi	
TASHKILOTDAGI BOSHQARUV TIZIMINING MEHNAT	
SAMARADORLIGIGA TA’SIRI.....	78
Usmonov Adxamjon A’zamjonovich	
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK RIVOJLANISH	
LOYIHALARINI BOSHQARISH: LOYIHA BOSHQARUVI YONDASHUVLARI	
ASOSIDA.....	87
Sobirjanova Oydina Bobir qizi	
LOGISTIKA PROVAYDERLIK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI	
OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI	
96	
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
TASHQI BOZORLARGA INTEGRATIVASIYALASHUVNING MINTAQAVIY	
IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA UNGA NISBATAN NAZARIY	
YONDASHUVLAR	107
Ozodova Farida Zarif qizi	

KORXONADA ISHLAB CHIQUARISH POTENTIALIDAN FOYDALANISH TAHLILI	112
Musayeva Shoirazimovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	122
Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	128
Kurbanova Maftuna Lazizovna	
ОЦЕНКА КОММЕРЧЕСКОЙ НЕДВИЖИМОСТИ В E-COMMERCE-ЭПОХУ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH USULLARI	152
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONIDAGI TENDENSIYALARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..	159
Salayev Jasurbek Komilovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	170
Ismailov Allayor Rashidovich	
OLMAZOR TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI INNOVATSION BOSHQARUV ORQALI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA IMKONIYATLARI	181
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
ANALYSIS OF INDONESIA'S DUALISTIC FINANCIAL SYSTEM AND ITS POSSIBILITIES FOR USE IN UZBEKISTAN	193
Irgasheva Gulbakhor	
HUDUDLARNI EKSPORT SALOHIIYATINI OSHIRISHDA MAHALLIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Bekchanov Davron Masharipovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	219
Азизов Ильдар Рафаэлевич	
TIJORAT BANKLARIDAN UNDIRILADIGAN FOYDA SOLIG'INING DAVLAT BYUDJETIGA TA'SIRI	226
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ ПУТЕЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	232
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI VA YANGI KASBLAR	240
Sadriddinova Xilola Raxmatullayevna	
THE FACTORS THAT INFLUENCE THE PRICING OF A PRODUCT OR SERVICE.....	247
Sa’dullayeva Sayyora Nasillo qizi	
O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	253
Matkarimov Jahongir Shamuratovich	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI ..	267
Mallaboev Anvarjon Sotvoldievich	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	275
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
ЦИФРОВАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И НОВОЕ КАЧЕСТВО МАРКЕТИНГОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА	283
Вахабов Асадулло Убайдулло угли	
FINTECH VA BANKLAR O‘RTASIDAGI QARAMA-QARSHILIK VA ULARNING INTEGRATSIYALASHUV IMKONIYATLARI	291
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNI RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINING UMUMIY YO‘NALISH VA XUSUSIYATLARI	298
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING HOLATI VA SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	308
Normurodov Umidjon Normurod o‘g‘li, Shadiyeva Lobar Abdurazikovna	
XODIMLARNI RIVOJLANTIRISH – KADRLAR SIYOSATIDAGI ASOSIY USTUVOR YO‘NALISHLARDAN BIRI	316
Sattarov Shuxrat Abug‘affarovich	
DAVLAT IQTISODIYOT XAVFSIZLIGINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	323
Karimov Javlon Ko‘ziyevich	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	333
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	
SANOAT KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	344
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	

XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Mallaboev Anvarjon Sotvoldievich

Andijon davlat texnika instituti,

“Iqtisodiyot” kafedrası,

katta o‘qituvchi, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: mallaboyev.anvarjon.@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada xalqaro raqobatbardoshlikning iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni va ahamiyati, raqobatbardoshlik va xalqaro raqobatbardoshlik kategoriyalarining ayrim ilmiy nazariy jihatlarini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashtirish, raqobat, raqobatbardoshlik, liberallashtirish, xalqaro iqtisodiy integratsiya, mehnat unumdorligi, aholi turmush farovonligi.

Аннотация

В статье анализируются роль и значение международной конкурентоспособности в экономике, а также некоторые научно-теоретические аспекты и категории международной конкурентоспособности.

Ключевые слова: глобализация, конкуренция, конкурентоспособность, либерализация, международная экономическая интеграция, производительность труда, уровень благосостояния населения.

Abstract

The article analyzes the role and importance of international competitiveness in the economy, as well as some theoretical aspects of competitiveness and the categories of international competitiveness.

Keywords: globalization, competition, competitiveness, liberalization, international economic integration, labor productivity, well-being of the population.

KIRISH

Globallashtirish jarayonlari jadallik bilan borayotgan hozirgi sharoitda jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayib borishi mamlakatlar uchun eng muhim hodisa hisoblanadi. Jahon mamlakatlari, iqtisodiy taraqqiyotning qaysi modelini tanlamasin, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligidagi mavqeyi va tutgan o‘rni, uning xalqaro raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Har qanday mamlakatda aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omili xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish va uning barqarorligini ta‘minlashdan iboratdir.

Hozirgi kunga kelib, Yangi O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiya jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish belgilangan. Ushbu yo‘nalishda eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga etkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingga 15 mingga etkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish, dunyoning 50 ta

nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil qilish, “Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash asosiy vazifalar qatorida ko‘rsatilgan. [1]

Milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, aholi turmush farovonligini yaxshilash kabi maqsadlarni amalga oshirish xalqaro raqobatbardoshlik masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili xalqaro raqobatbardoshlik tushunchasi ko‘plab nazariy maktablar va iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilganligini ko‘rsatadi.

Xalqaro raqobatbardoshlik klassik yondashuvlar nuqtai nazaridan xalqaro savdo nazariyalari orqali izohlanadi. Xalqaro savdo nazariyalarining asoschisi A.Smit, o‘zining 1776 yilda yozilgan "Xalqlar boyligi va tabiati " asarida “Mutlaq ustunlik nazariyasi”ni ilgari suradi. Ushbu nazariyada savdoni liberallashtirish va xalqaro ixtisoslashuv mamlakatlar farovonligini oshirishi ta’kidlanadi. [2]

D.Rikardoning “Qiyosiy ustunlik nazariyasi”ga ko‘ra esa, mamlakatlar boshqa mamlakatlarga nisbatan nisbiy ravishda arzonroq ishlab chiqaradigan tovarlarga ixtisoslashishi va ushbu tovarlarni eksport qilishlari kerak. Nisbiy ravishda qimmatroq ishlab chiqaradigan tovarlarni esa import qilishlari kerak. Bu o‘z navbatida mamlakat farovonligi va ayni vaqtda jahon farovonligi uchun ham foyda keltiradi.[3]

M. Porter ko‘p yillar davomidagi o‘zining empirik va institutsional tadqiqotlarini bosqichma-bosqich rivojlantirdi va o‘z tadqiqotlarini "Millatlarning raqobatbardosh ustunligi" nomi bilan nashr ettirdi. U fanga “qiyosiy ustunlik” o‘rniga “raqobatbardosh ustunlik” tushunchasini kiritdi va raqobatbardoshlik faqat arzon ishchi kuchi va xom ashyo bilangina emas, balki innovatsiya, texnologiya, talabning rivojlanganligi va milliy tarmoqlarning samaradorligi bilan ta’minlanishini ilgari surdi. [4]

Raqobat va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yuzasidan milliy tadqiqotchilarimiz tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Iqtisodchi olim D.Tojiboeva milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va uning nazariy konseptual asoslarini o‘rgangan. Milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning tutgan o‘rni, raqobat va raqobatbardoshlik kategoriyalarining mazmun mohiyati, umumiy jihatlari va farqlari, raqobatbardoshlikning tasniflanishiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan. [5]

Iqtisodchi olim M.T.Yaxshieva hozirgi zamon raqobat nazariyalari, O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitining shakllantirishning strategik maqsadlari va jahon bozoridagi raqobat usullaridan foydalanish mexanizmlarini tadqiq etgan. Raqobatga oid turli nazariyalar, konsepsiyalar, strategiyalar va modellar tahlil va sintez qilinib, ular asosida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning konseptual asoslari ishlab chiqilgan [6]

Boshqa bir iqtisodchi olim S.I.Holbaev raqobat nazariyalari tadrijiy rivojlanishining iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashdagi ahamiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan. Raqobat nazariyalarining tarixiy rivojlanish xususiyatlari

tadqiq etilib, raqobat muhitini yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. [7]

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o'rganish, statistik tahlil qilish, taqqoslama tahlil, guruhlash usullardan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahondagi globallashuv jarayonlarining ajralmas elementi sifatida paydo bo'lgan raqobat, texnologik innovatsiyalar, milliy va xalqaro narxlar, valyuta kurslari va mehnat unumdorligi kabi ko'plab iqtisodiy omillarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Asrimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va texnologik transformatsiyalashuv jarayonlari, raqobatning shakli va miqyosini keskin o'zgartirdi. Hozirgi kunga kelib, firmalarning muvaffaqiyat mezonlari iste'molchilarning cheksiz talablarini iqtisodiy jihatdan qondirish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan XXI asrda firmalar axborotni qayta ishlash va baholash imkoniyatlariga katta ahamiyat berib, raqobatbardoshlik jihatidan sezilarli yutuqlarga erishmoqdalar.

Raqobat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning zarur shartlaridan biridir. Iqtisodiy samaradorlik — kamyob resurslardan maksimal foyda olishni ta'minlaydigan shaklda foydalanishni bildiradi. Raqobat ishlab chiqarishda, resurslar taqsimotida va innovatsiyalarda samaradorlikni ta'minlaydi. Iqtisodiy farovonlikni ta'minlash orqali iqtisodiy kuchning yagona qo'lda to'planishining oldini oladi. Raqobat demokratik faollikni va plyuralizmni oshirganligi sababli bozor iqtisodiyotida strategik ahamiyatga egadir. Raqobat muayyan shartlar bajarilgan taqdirda samarali shaklda ishlaydi va turli vazifalarni bajaradi.

Konseptual nuqtai nazardan ilmiy adabiyotlar tahlili raqobatbardoshlik tushunchasiga ta'rif berishda turli xildagi yondashuvlar mavjud ekanligini ko'rsatadi. (1-jadval)

Tadqiqotchilar va olimlarning raqobatbardoshlikka ko'p qirrali va turli nuqtai nazarlardan yondashuvlari ushbu tushunchaning ilmiy adabiyotlarda doimiy ravishda bahs va munozaralar markazida bo'lishiga va muammoning har doimo kun tartibida saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

Jahon Iqtisodiy Forumining bu boradagi tadqiqotlariga ko'ra, raqobatbardoshlik tadbirkorlarning mahsulot va xizmatlar dizayni, ishlab chiqarish va narx siyosati orqali raqobatchilarga nisbatan ustunlik yarata olish mezonlariga asoslanadi. Har qanday mamlakatda mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar, olib borilgan iqtisodiy siyosat va institutsional tuzilmalarning samarali faoliyati milliy raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi. [8]

Xalqaro Menejmentni Rivojlantirish Instituti esa raqobatbardoshlikni iqtisodiy ko'rsatkichlar, biznes muhiti, davlat sektori va mamlakat infratuzilmasi bilan bog'liq ekanligini va ushbu o'zgaruvchilardagi yaxshi tomonga o'zgarishning umumiy raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilgari suradi. [9]

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta'rifiga ko'ra, agar mamlakatda erkin bozor sharoitida tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga erishilayotgan bo'lsa va amalga oshirilgan ishlab chiqarish natijasida aholi farovonligida yaxshi tomonga o'zgarish mavjud bo'lsa, mamlakat xalqaro raqobatbardoshlikka ega bo'ladi. Xalqaro raqobatbardoshlik- bu firmalar, tarmoqlar, mintaqalar, mamlakatlar va boshqa iqtisodiy subyektlarning barqaror shaklda ishlab chiqarish omillari daromadini va bandlik darajasini oshirib borishi sifatida ifodalanadi. [10]

D.Tojiboeva fikricha, "Raqobatbardoshlik — ma'lum bir obyekt yoki subyektning o'ziga o'xshashlar orasida muayyan sharoitlarda raqiblardan ustun turish imkoniyati, raqiblarning har qanday bosim o'tkazishiga dosh berish, ulardan ko'ra afzallikka ega bo'lishdir". [5]

M.T.Yaxshieva tomonidan "Raqobatbardoshlik — bu odatda tovar ishlab chiqaruvchilarning minimal foydalilikni ta'minlovchi narxda tashqi bozorda sotish uchun ishlab chiqarishga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi." deb ta'rif berilgan [6]

S.I.Holboevga ko'ra esa "Mamlakat raqobatbardoshligi deganda jahon bozorlarida raqobatlasha oladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqaradigan va buning natijasida yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sish darajasini hamda aholi farovonligining oshishini ta'minlovchi resurslarini jamg'aradigan mamlakat iqtisodiyotini tushunish kerak". [7]

1-jadval

Xorijiy olimlar va tashkilotlar tomonidan raqobatbardoshlik tushunchasiga berilgan ta'riflar. [11]

Raqobatbardoshlik tushunchasiga berilgan ta'riflar	Ta'rif Mualliflari
Raqobatbardoshlik mamlakatda aholi jon boshiga YaIM hajmining yuqori darajasiga erishish va uning barqarorligini ta'minlash qobiliyatidir.	World Economic Forum, Global Competitiveness Report, 1996, pg.19.
Raqobatbardoshlik mutlaq emas nisbiy tushunchadir. Raqobatbardoshlik muhitga va ishtirokchilarga ko'ra o'zgaruvchan jarayondir. Ushbu jarayon raqobatchilar va iste'molchilarning kutishlariga, moliyaviy kuchga, tezkor qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish qobiliyatiga, inson resurslari va texnologiyaga bog'liqdir. Agar ushbu elementlar o'rtasida uyg'unlikka erishilsa va ular o'rtasidagi ziddiyat yaxshi boshqarilsa raqobatbardoshlik doimiy bo'lishi mumkin.	Feurer, R. and Chaharbaghi, K., "Management Decision", 1994, Vol.32, No.2, pp. 49
Milliy raqobatbardoshlik har qanday mamlakatning xalqaro savdoda yangi mahsulotlarni yaratish, ishlab chiqarish, tarqatish yoki taqdim etish qobiliyatidir.	Scott, B.R. and Lodge, G.C., "US Competitiveness in the World Economy", 1985, pg.3.

Raqobatbardoshlik tushunchasiga berilgan ta'riflar	Ta'rif Mualliflari
Raqobatbardoshlikning ikkita muhim unsuri mavjuddir: birinchisi, maqsadga erishishda mavjud resurslardan eng samarali shaklda foydalanish; ikkinchisi, maqsadni to'g'ri tanlash va ushbu maqsadlarga erishish qobiliyatidir.	Buckley, P.J. Etal, "Measures of International Competitiveness: A Critical Survey", Journal of Marketing Management, 1988.
Raqobatbardoshlik samaradorlik va rentabellik unsurlarini ifodalaydi. Raqobatbardoshlik mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan maqsadlarga erishish uchun turmush darajasini oshirish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilash vositasidir. Raqobatbardoshlik global miqyosda, xalqaro ixtisoslashuv sharoitida samaradorlik va rentabellikni ta'minlash orqali aholi daromadlarini noinflyatsion yo'l bilan oshirishga asoslanadi.	Competitiveness Advisory Group, (Ciampi Group), "Enhancing European Competitiveness". First report to the President of the Commission, the Prime Ministers and the Head of State, June 1995.
Raqobatbardoshlikning asosiy ma'nosi, aholi turmush darajasini oshirish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash va qashshoqlikni bartaraf etishdan iborat bo'lishi kerak.	Competitiveness Advisory Group, (Ciampi Group), "Enhancing European Competitiveness". Second report to the President of the Commission, the Prime Ministers and the Heads of State, December 1995.
Raqobatbardoshlik erkin savdo va adolatli bozor sharoitida, mamlakatning xalqaro bozor standartlariga mos ravishda tovar va xizmatlar ishlab chiqarishi va shu bilan birga uzoq muddatli istiqbolda o'z fuqarolarining real daromadlarini oshirishga e'tibor qaratishidir.	OECD.
Raqobatbardoshlik, bu firmaning yoki tarmoqning raqobatchilari bilan o'zaro kurashi natijasida kelib chiqadigan qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatidir.	US Department of Energy.
Uzoq muddatli istiqbolda aholining turmush darajasini oshirish va barqarorligini ta'minlash orqali, xalqaro bozor talablariga mos ravishda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyatidir.	The First Report to the President and Congress, 1992. US Competitiveness Policy Council.
Agar firma mahalliy va xalqaro raqobatchilariga nisbatan sifatliroq va arzonroq tovar va xizmatlar ishlab chiqarsa u raqobatbardosh hisoblanadi. Raqobatbardoshlik – bu firmaning uzoq muddatli foyda ko'rish, ishchilariga	Report of the Select Committee of the House of Lords on Overseas Trade, 1985.

Raqobatbardoshlik tushunchasiga berilgan ta'riflar	Ta'rif Mualliflari
maoshlarini to'lash va hissadorlariga yuqori daromad keltirish salohiyatidir.	
Firma darajasida raqobatbardoshlik, firmaning iste'molchi talablariga mos va iste'mol qiymati yuqori bo'lgan tovar va xizmatlarni, raqobatchilari kabi doimiy ravishda yetkazib berish qobiliyatidir.	Department of Enterprise, Trade and Employment, UK.

M.Porterning fikricha, har qanday mamlakatning xalqaro raqobatbardoshlik ko'rsatkichi mavjud resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liqdir. Mamlakatlar yuqori mehnat unumdorligi bilan faoliyat ko'rsatishlari uchun, mamlakatga kapital uchun yuqori daromad va mehnat uchun yuqori ish haqi to'lay oladigan yirik miqdordagi investitsiyalarni jalb qilishlari kerak bo'ladi. Ushbu vaziyatni barqaror qilish esa mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshiradi. [4]

K. Aigingerga ko'ra, raqobatbardoshlik milliy farovonlikni oshirish demakdir. Shu nuqtai nazardan, mehnat unumdorligi, ilmiy-tadqiqot ishlari va bunga bog'liq ravishda yuqori texnologiyali tovarlar ishlab chiqarish va eksport qilish, tashqi savdo profitsiti, o'z sohasining yetuk mutaxassislari va malakali kadrlar aholi turmush farovonligi ortishini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir. [12]

B.Kogut mamlakat miqyosidagi umummilliy tarmoqqa ega bo'lgan institutsional tuzilmalar mamlakatning raqobatbardoshligi va texnologik infratuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Institutsional tuzilmalar faol bo'lgan muhitda texnologiya va axborot tarqalishi yuqori darajada bo'lib, bu esa o'z navbatida iqtisodiy rivojlanish va tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashi ilgari suriladi. Kogutning fikricha, raqobatbardoshlikdagi o'zgarishlarni faqat texnologik va institutsional o'zgarishlar bilan izohlash mumkin. Milliy raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omillar: tashqi savdoning tarkibiy tuzilishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori va kapital kirib kelgan tarmoqlar tarkibidir.[13]

Ko'plab iqtisodchi olimlar raqobatbardoshlik tushunchasini iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida qo'llash mumkinligini ilgari surishadi. Biroq P.Krugman raqobatbardoshlik tushunchasini faqatgina firma darajasida qo'llash mumkinligini, ushbu tushunchani mamlakat darajasida qo'llanilishi mantiqiy hisoblanmasligi, agar mamlakat darajasida qo'llanilsa, mehnat unumdorligi tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Krugmanga ko'ra, firmalardan farqli o'laroq, mamlakatlar o'zlari ishlab chiqargan tovar va xizmatlarning katta qismini mamlakat ichkarisida iste'mol qilganliklari sababli, mamlakatning ko'pgina segmentlar uchun ularning xalqaro raqobatbardoshlikka ega bo'lishlari unchalik muhim emas. [14]

Har qanday mamlakatning farovonligi uning raqobatbardoshligiga bog'liqdir. Raqobatbardoshlikning asosida esa tovar va xizmatlar ishlab chiqarishdagi mehnat unumdorligi yotadi. Mehnat unumdorligini oshirish uchun barqaror va samarali makroiqtisodiy siyosat bilan birga huquqiy institutlar zarurdir. Bundan tashqari,

mikroiqtisodiy nuqtai nazardan, firmalarning ko'p qirrali faoliyat yuritishi, samarali strategiyalarni ishlab chiqishi va amalga oshirishida firmalar o'rtasida shiddatli raqobatni yuzaga chiqaruvchi mikro-biznes muhitining sifati muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, mikroiqtisodiy subyektlarning raqobatbardoshligini anglash milliy iqtisodiy siyosatning ham asosidir. [15]

Raqobatbardoshlik tushunchasi uni aniqlashda foydalanilgan mezon va ko'rsatkichlarga, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga, hududi va miqyosiga ko'ra turlicha ta'riflanganligini ko'rish mumkin. Raqobatbardoshlik tushunchasi hududiy jihatdan firma, tarmoq, mamlakat yoki xalqaro miqyosidagi, raqobatbardoshlikni aniqlash ko'rsatkichlari va yondashuv shakliga ko'ra mikro yoki makro darajadagi raqobatbardoshlik sifatida ifodalanadi.

Umuman olganda fikrimizcha, raqobatbardoshlik – bu shaxs, firma, tarmoq yoki mamlakatning mavjud resurslar va imkoniyatlardan samarali foydalangan holda raqobatchilarga nisbatan yuqori qo'shimcha qiymat yaratish va ushbu qiymatning barqarorligini ta'minlash va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tezlik bilan moslashish qobiliyatidir.

Raqobatbardoshlik raqobat sharoitida o'z mavqeyini saqlab qolish qobiliyati hisoblanib, erkin bozor tizimining samarali faoliyat yuritishida muhim o'rinni egallaydi. Raqobatbardoshlikni firmalar, tarmoqlar, mintaqalar, mamlakatlar yoki iqtisodiy ittifoqlarning xalqaro raqobatda nisbiy jihatdan yuqori daromad va bandlik darajasidagi ishlab chiqarish quvvati sifatida ta'riflash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro raqobatbardoshlik, bir mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarning boshqa mamlakatlarning tovarlari bilan narx, sifat, dizayn, ishonchlilik va o'z vaqtida etkazib berish kabi mezonlar bo'yicha musobaqalashish darajasiga ega bo'lishidir.

Ko'rinib turganidek, xalqaro raqobatbardoshlikning ta'rifi, ko'rsatkichlari va unga ta'sir etuvchi omillar haqida umumiy qabul qilingan yondashuvlar mavjud emas. Xalqaro raqobatbardoshlik yuzasidan keltirilgan yondashuvlarni asosan ikkita bir-biridan farqli guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq : birinchisi mikro darajadagi yondashuv (firma va tarmoq darajasidagi) va ikkinchisi makro darajadagi (mamlakat darajasidagi) yondashuvlardir. Mikro darajadagi yondashuv mamlakatdagi firmalar o'rtasidagi raqobat va ushbu raqobatning milliy va xalqaro maydondagi ta'sirini o'rgansa, makro yondashuv mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobat darajasini o'rganadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi barcha jihatlarni e'tiborga olgan holda, mamlakatda aholi turmush darajasining uzoq muddatli o'sishi raqobatbardoshlik ortishining muhim ko'rsatkichi sifatida qabul qilinadi. Raqobatbardoshlikni asosiy ko'rsatkichi sifatida qabul qilingan mehnat unumdorligining: inflyatsiya, davlat qarzi, valyuta kursi va foiz stavkasi kabi makroiqtisodiy o'zgaruvchilarga, shu bilan birga mehnat resurslari, aholi demografik tarkibi, ta'lim, tadbirkorlik darajasi, innovatsiyalar, xalqaro savdo balansi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, tashqi dunyoga ochiqlik darajasi, milliy jamg'arma va ichki investitsiyalar, mehnat bozorini tashkil etish, institutsional tuzilmalar va

infratuzilma uchun investitsiyalar kabi omillarga bog‘liq ekanligini xulosa qilish mumkin. Mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi omillarning xilma xilligi raqobatbardoshlik tushunchasiga murakkab va chuqur mazmun beradi va bu muammoni yanada yaxlit yondashuv bilan hal qilinishini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining.2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. S.Ü.Kelleci. Avrupa birliğine giriş sürecinde Türkiye’nin rekabet gücü:karşılaştırmalı üstünlükler modeline göre sektörel bir analiz. T.C. Adnan Menderes Üniversitesi. Aydın 2009. 12-13 ss
3. H.Seyidoğlu. (2005). Uluslararası iktisat teori politika ve uygulama, Güzem yayınları: İstanbul.
4. M.E.Porter (2000). Rekabet stratejisi, (Çev:Gülen Ulubilgen), Sistem Yayıncılık: İstanbul.
5. D.Tojiboeva. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va uning nazariy konseptual asoslari. Iqtisod va moliya. 2023,8(168). 2-10 b.
6. M.T.Yaxshieva. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi:O‘quv qo‘llanma.- T:TDIU,2019. 55-56 b.
7. S.I.Holbaev. Raqobat nazariyalari tadrijiy rivojlanishining iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashdagi ahamiyati. Moliya va bank ishi jurnali. 2 (2022), 16-23 b.
8. Aktan, C. C.ve Vural, İ. (2004). “Rekabet Gücü ve Rekabet Stratejileri” TİSK Yayını Rekabet Dizisi, 2, Ankara.
9. IMD, World Competitiveness Yearbook 2014. Institute for Management Development Geneva and Lausanne.
10. OECD, (1996). “Globalisation and Competitiveness: Relevant Indicators”. STI Working Papers 1996/5.
11. Garelli Stephane, “Competitiveness of Nations: The Fundamentals”, IMD World Competitiveness Yearbook 2006, pp: 616-617, 2006
12. Aiginger, K. (2006). “Competitiveness: From a Dangerous Obsession to a Welfare Creating Ability with Positive Externaties”. Journal of Industry, Competitionand Trade, 6, 161-177.
13. Kogut, B. M. (1993). Country Competitiveness: Technology and The Organizing of Work, Oxford: Oxford University Press
14. Krugman, P. (1994). “Competitiveness: A Dangereous Obsession”. Foreign Affairs, March/April, Vol.73., No.2, 28-44.
15. Z.Ç. Yurttañıkırmaz. Seçilmiş ölkelerde rekabet gücünün belirleyicileri ve büyüme ilişkileri. Doktora tezi. Erzurum 2014. 260 s



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**